

## “Biz korrupsiyaga qarshimiz” va “Korrupsiya rivojlanishimizga to‘siq” mavzularida huquq - targ‘ibot idoralari va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida universitetda davra suhbatlari-profilaktik tadbiri o‘tkazildi.

Joriy yilning 20-yanvar kuni Termiz davlat universiteti “Kimyo” fakulteti faollar zalida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrda PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturining 25-bandida belgilangan **“Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish”** vazifasiga ko‘ra universitet rektori tomonidan 2023-yil 18-dekabr kuni tasdiqlangan reja-jadvalga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari vakillari bilan oliygohning «Xorijiy filologiya», «Rus va qardosh tillar» fakultetlari professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari hamda akademik litsey pedagoglari va o‘quvchilari ishtirokida (ZOOM videokonferensiya dasturi orqali) davra suhbatlari tadbiri amalga oshirildi.

Davra suhbatida Surxondaryo viloyati Adliya boshqarmasi bo‘limi boshlig‘i **Q.Ulug‘ov**, Surxondaryo viloyati Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi bosh mutaxassisi **O‘.Egamberdiyev**, oliygoh o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor **R.To‘rayev**, korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i **U.Devonov**, korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi bosh mutaxassisi **A.Mansurov**, “Xorijiy filologiya” fakulteti dekani **A.Xudoyqulov**, “Rus va qardosh tillar” fakulteti dekani **P.Bakirov** va ularning o‘rinbosarlari, 58 nafar professor-o‘qituvchilar hamda 500 nafar talaba yoshlar va 120 nafar akademik litsey o‘quvchilar qatnashishdi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar korrupsiyaning xavf-xatarlari, ushbu illatga imkoniyat yaratuvchi sabablar, shart-sharoitlar va oqibatlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi haqida ma‘ruza qilishdi. Shuningdek, ular o‘z chiqishlarida aholining barcha qatlam vakillari, xususan, kelajak egalari bo‘lgan yoshlarning korrupsiyaga qarshi murossasiz ruhda ta‘lim-tarbiya olishi muhim ahamiyatga egaligini hamda ushbu illatga qarshi kurashish – barchamizning burchimiz ekanini alohida ta‘kidlab o‘tishdi.



Shu bilan birga, ma'ruzachilar, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala bo'lib, bu borada nafaqat mas'ul idoralar, balki keng jamoatchilik ham hamjihat va hamfikir bo'lmog'i maqsadga muvofiqligini aytib o'tishdi. Shundan kelib chiqib, qayerdadir ta'magirlik, poraxo'rlik holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq bo'lmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag tomiri bilan quritishga qaratilgan sa'y-harakatlarni vijdonan bajarishga kirishmog'imiz burch va mas'uliyatimizga aylanmog'i darkorligini ta'kidlab o'tishdi.



# “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” mavzusida oliygohning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talaba yoshlar klubi a‘zolari bilan davra suhbatlari va uchrashuvlar o‘tkazildi.

2024-yil 24,31-yanvar va 1,7,14, 15, 20,21-fevral kunlari Termiz davlat universiteti “Milliy libos va san’at”, “Fizika - matematika”, “Rus va qardosh tillar”, “Yuridik”, “Kimyo”, “Sport faoliyati va boshqaruvi”, “Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar”, “Xorijiy filologiya” va “Tarix” fakultetlarining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talaba yoshlar klubi a‘zolari ishtirokida **“Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi”** mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi.

Tadbirda universitet korrupsiyaga qarshi kurashish «Komplayens - nazorat» tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i **U.Devonov**, bo‘lim bosh mutaxassisi **A.Mansurov**, fakultet dekanlari, ularning o‘quv ishlari hamda yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari ishtirok etishdi.

Tadbirda talabalarga korrupsiyaning mazmun-mohiyati, uning kelib chiqish sabablari, uni birgalikda bartaraf qilish kerakligi va unga qarshi kurashish bo‘yicha tushunchalar berildi hamda kelgusida ushbu yo‘nalishda amalga oshirilishi rejalashtirilgan tadbirlar xususida kelishib olindi.Suhbat jarayonlarida barcha talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javoblar olishdi.

Tadbir oxirida ishtirokchilarga O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti ko‘magi asosida “Korrupsiya rivojlanishimizga to‘siq” mavzusida tayyorlangan videorolik namoyish etildi.



# “Biz korrupsiyaga qarshimiz” va “Korrupsiya rivojlanishimizga to‘siq” mavzularida huquq - targ‘ibot idoralari va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida universitetda davra suhbatı-profilaktik tadbiri o‘tkazildi.

Joriy yilning 26-yanvar kuni Termiz davlat universitetining faollar zalida “Sport faoliyati va boshqaruvi” fakultetining professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturining 25-bandida belgilangan **“Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish”** vazifasi ijrosi hamda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish yuzasidan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”ga asosan “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” mavzusida tadbir o‘tkazildi.

Tadbirda fakultet dekani **I.Xasanov**, Termiz shahar Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i podpolkovnik **Shukurov Utkir Ro‘ziyevich** va oliygohning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i **Devonov Ulug‘bek Mamatqulovichlar** qatnashishdi.

Tadbir ishtirokchilarga korrupsiya va uning salbiy oqibatlari, korrupsion holatlarning har qanday shakliga jazoning muqarrarligi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli bandlari bo‘yicha sharhlar va korrupsiyaga qarshi kurashish barchamizning burchimiz ekanligi, shuningdek, talaba - yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va ularni kelib chiqishga imkon bergan shart-sharoitlar hamda amaldagi qonun hujjatlari mazmun-mohiyati xususida tushunchalar berildi.

Tadbir jarayonida ishtirokchilarga O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti ko‘magi asosida “Yoshlar korrupsiyaga qarshi”, “Biz korrupsiyaga qarshimiz” va “Korrupsiya rivojlanishimizga to‘siq” mavzularida tayyorlangan videoroliklar namoyish etildi.

